

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN YO‘L HARAKATI QOIDALARI VA HARAKAT XAVFSIZLIGI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Yo‘l harakati qoidalarini va harakat xavfsizligi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Yo‘l harakati qoidalarini va harakat xavfsizligi

1. Yo‘l harakati qoidalarini;
2. Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari;
3. Yo‘l-transport hodisasida jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Yo'l harakati qoidalari	Yo'l harakati sohasidagi qonunchilik asoslarini, haydovchining huquqiy javobgarligini, umumiy qoidalarni, qoidalarda qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalarini, yo'l harakati ishtirokchilarining vazifalarini, yo'l belgilari, yo'l chiziqlarini, harakatlanish tartibini, transport vositalarining to'xtashini va to'xtab turishini, yo'l harakatini tartibga solishni, chorrahalarda harakatlanish qoidalarni, piyodalar o'tish joylari, yo'nalishli transport vositalarining bekatlari va temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanishni, harakatlanishning alohida shartlarini biladi, amaliyotda qo'llab, tahlil qila oladi.	70%	28 ta
2	Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari	Haydovchi faoliyatining psixofiziologik asoslarini, haydovchi madaniyati va etikasini, avtotransport vositasini boshqaruvida kuzatishni tashkillashtirishni, qabul qilinayotgan axborotning xavflilik darajasini baholay olishni, avtotransport vositasini boshqarishda haydovchining harakatlarini, murakkab vaziyatlarda haydovchining harakatlarini, yo'l-transport hodisalari haqida bilim va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	25%	10 ta
3	Yo'l-transport hodisasida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish	Yo'l-transporti hodisalari oqibatida jarohatlanishlarning umumiy tasnifini biladi, YTHda jabrlanuvchilarga tibbiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslarini, jarohatlanishda birinchi tibbiy yordam ko'rsata olishni, qon oqishi va uni to'xtatish usullari haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	5%	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	60%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	40%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	10%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri

javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.Yo‘l harakati qoidolari va harakat xavfsizligi J.R. Kulmuxamedov va b.
“Excellent Polygraphy” Toshkent – 2021

2.Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qaroriga
1-ILOVA